

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.01/2025.27.12.Ped.04.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

SUYUMOV JO‘RABEK YUNUSALIYEVICH

**UMUMTA’LIM MAKTAB O‘QUV JARAYONINI KOMPYUTER
IMITATSION MODELLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH
TEXNOLOGIYALARI
(9-sinf biologiya darsligi misolida)**

13.00.06 – Raqamli ta’lim nazariyasi va metodikasi

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Chirchiq – 2026

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Suyumov Jo‘rabek Yunusaliyevich

Umumta'lim maktab o'quv jarayonini kompyuter imitatsion modellar asosida takomillashtirish texnologiyalari (9-sinf biologiya darsligi misolida) 3

Суюмов Журабек Юнусалиевич

Технологии совершенствования образовательного процесса общеобразовательной школы на основе компьютерных имитационных моделей (на примере учебника биологии 9 класса) 19

Suyumov Jurabek Yunusalievich

Technologies for improving the educational process based on computer simulation models in secondary schools (on the example of the 9th class biology textbook) 37

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works 41

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.01/2025.27.12.Ped.04.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

SUYUMOV JO‘RABEK YUNUSALIEVICH

**UMUMTA‘LIM MAKTAB O‘QUV JARAYONINI KOMPYUTER
IMITATSION MODELLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH
TEXNOLOGIYALARI
(9-sinf biologiya darsligi misolida)**

13.00.06 – Raqamli ta‘lim nazariyasi va metodikasi

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi xuzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/Ped3769 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Farg'ona davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.cspu.uz) hamda "ZiyoNET" Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Lutfillayev Maxmud Xasanovich
pedagogika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Axmedjonov Dilmurod G'ulomovich
texnika fanlari doktori (DSc), professor

Muxtarov Farrux Muhammadovich
pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

Yetakchi tashkilot:


Qo'qon davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Chirchiq davlat pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.01/2025.27.12.Ped.04.03 raqamli ilmiy Kengashning 2026 yil "3" 04 kuni soat 14⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 111720 Toshkent viloyati, Chirchiq shahar, Amir Temur ko'chasi, 104-uy. Tel: (99870) 712-27-55; faks: (99870) 712-45-41; e-mail: tvchdpi@cspu.uz).

Dissertatsiya bilan Chirchiq davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (454 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 111720 Toshkent viloyati, Chirchiq shahar, Amir Temur ko'chasi, 104-uy. Tel: (99870) 712-27-55; faks: (99870) 712-45-41.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "19" 03 kuni tarqatildi.

(2026- yil "19" 03 dagi 11 raqamli restr bayonnomasi).



F.U.Qodirova
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi,
p.f.d. (DSc), professor

I.D.Qodirov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
kotibi, pedagogika fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD), dotsent

D.O.Ximmataliyev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash qoshidagi Ilmiy seminar
raisi, p.f.d. (DSc), professor

KIRISH (falsafa fanlari doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Jahonda ta'lim jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy qilish, ta'lim resurslari bazasini yaratish va ulardan foydalanish samaradorligini orttirish orqali o'quvchilarning bilim olish samaradorligini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Tabiiy fanlar, jumladan, biologiya fanini o'qitishda interaktiv dasturiy vositalarning vizual va virtual imkoniyatlariga asoslangan, shuningdek, o'quvchilarda biologik jarayonlarga oid bilimlarni rivojlantirish, reflektiv ko'nikmalarni tarkib toptirishga yo'naltirilgan mavzulashirilgan kompyuter imitatsion modellarini yaratish katta ahamiyatga ega.

Dunyoning AQSH, Germaniya, Xitoy, Rossiya, Koreya, Buyuk Britaniya, Kanada, Hindiston, Malayziya, Yaponiya kabi taraqqiy etgan mamlakatlarida ta'lim texnologiyalarini qo'llash asosida o'quvchilarning fazoviy tasavvurlarini rivojlantirish, bilim darajalari natijaviyligini oshirish, ularda fan bo'yicha nazariy bilim hamda amaliy kompetentsiyalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan ilmiy ishlarida o'z aksini topmoqda. Bunda, ayniqsa o'quv fanlarining integratsiyasiga asoslangan ta'limiy texnologiyalarning didaktik imkoniyatlaridan foydalanish ta'lim jarayonining dolzarb muammolari sirasiga kirishi asoslagan.

Mamlakatimizda kimyo va biologiya fanlarini rivojlantirish, ushbu yo'nalishlarda ta'lim sifati va ilm-fan natijadorligini oshirishga qaratilgan davlat dasturlari ishlab chiqilmoqda va amaliyotga joriy etilmoqda. Shu bilan bir qatorda, umumta'lim maktablaridagi biologiya fanlarini o'qitish sifati bugungi davr talablariga javob bermasligini, o'qitish metodologiyasi va laboratoriyalar ma'nan eskirganligini, o'qituvchilarning mehnatini munosib rag'batlantirish mexanizmlari joriy qilinmaganligini alohida qayd etish zarur.

O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha "O'zbekiston — 2030" strategiyasida "Maktabgacha ta'lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish hamda bolalarning to'liq qamrovini ta'minlash, umumiy o'rta ta'lim tizimida "Ta'lim uchun qulay muhit" dasturini amalga oshirish, umumiy o'rta ta'lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish" ustuvor vazifa etib belgilangan¹. Bu borada biologiya fani mazmuni va aniq-tabiiy fanlarning tayanch tushunchalarini o'zaro integratsiyalash, metodik ta'minot mazmunini baholashning halqaro dasturlar talablari asosida ishlab chiqish, o'quvchilarning amaliy ish ko'nikmalarini shakllantirish ishlarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, o'g'il-qizlarimizni kimyo va biologiya fanlari bo'yicha chuqur o'qitish hududlarda yangi ishlab chiqarish korxonalarini barpo etish, xalqimiz turmush sharoiti va daromadlarini oshirishga puxta zamin hozirlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 25 yanvardagi PF-5313-son "Umumiy o'rta, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2019 yil 29 apreldagi PF-5712-son "O'zbekiston

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risidagi PF-158-son farmoni – URL: <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>

Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari, 2020 yil 12 avgustdagi PQ-4805-sonli "Kimyo va biologiya yo'nalishlarida uzluksiz ta'lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 apreldagi 187-son "Umumiy o'rta, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi Qaror hamda boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. «Axborotlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish» ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Ta'limda axborot-kommunikatsion texnologiyalarini joriy etish, elektron ta'limni rivojlantirish, elektron axborot-ta'lim resurslari va dasturiy qobiqlarni yaratish va qo'llashga oid tadqiqotlar A.Abduqodirov, M.Aripov, R.Boqiyev, F.Zakirova, M.Lutfillayev, N.I.Taylaqov, M.Tillashayxova, U.Begimqulov, Y.Mamatova, S.Sulaymanova, R.Djurayev, U.Taylaqov, M.Fayziyev, B.Do'monovlar tomonidan olib borilgan bo'lib, umumta'lim maktablarda kompyuter imitatsion modellarni o'quv jarayoniga tatbiq etishning nazariy asoslari va o'quv jarayonini kompyuter imitatsion modellar asosida takomillashtirishga doir masalalar M.Lutfillayev, I.Tuxtasinov, F.Lutfilloyeva, G.Ergasheva, L.Qaraxonova, S.Aliboyev, U.Taylaqov, R.Eshimov, N.Muslimov, D.Sayfurov, A.To'raev, F.G'affarov, M.Niyozov, B.Sapayev, J.Todjiyev, S.Razzoqova, Sh.Hamdamiyov, R.Bardiyev, V.Hamidov, E.Imamov, B.Mahmudovlarning ishlarida tadqiq etilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi davlatlarida kompyuter imitatsion modellar asosida dars jarayonini tashkil qilishning pedagogik jihatlarini o'rganishga doir tadqiqot ishlari I.Maksimiyev, A.Volodin, V.Boev, I.Kudinov, E.Mogilevskaya, I.Pikalov, M.Sergeyeva, E.Panisheva, E.Konstantinov, V.Timchenko, A.Bologova, E.Travkin, I.Balandina, A.Levkinlar tomonidan o'rganilgan.

Xorijiy olimlar tomonidan o'quv jarayonini kompyuter imitatsion modellar asosida takomillashtirish texnologiyalariga oid izlanishlar Tolk, Andreas; Rabadi, Ghaith; and Merino, Donald N., Tobail, A., Crowe, J., & Arisha, A., A.Davis, Singley, Bradford G., Miner, Woodrow D., Marlene Whigham, Nieman Cristoph, Hudert Sebastian va Eymann Torsten, Osman Balci, G.C.Chang, M.Radi, C.J.Brigas, Neila Campos, Maria Nogal, Cristina Caliz kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Farg'ona davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining "Ta'lim jarayonida o'qitishning innovatsion metodlari hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash" yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi umumta'lim maktablarida 9-sinf biologiya fanini kompyuter imitatsion modellar asosida o'qitish jarayonini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

9-sinf o'quvchilariga biologiya o'qitish jarayonini takomillashtirishda kompyuter imitatsion modellarning didaktik imkoniyatlarini aniqlashtirish;

o'quv jarayonini kompyuter imitatsion modellar asosida takomillashtirishning ko'p funksional modelini takomillashtirish;

kompyuter imitatsion modellari asosida biologiya fanini o'qitishning modifikatsiyalangan didaktik ta'minotini takomillashtirish;

o'quvchilarning o'zlashtirishi va amaliy-tahlil faoliyati samaradorligi raqamli o'qitish muhiti va multimediyali dasturlarda ta'minlanishini dalillash.

Tadqiqot obyekti sifatida umumta'lim maktablarida 9-sinf biologiya fanini kompyuter imitatsion modellar asosida o'qitish jarayoni belgilanib, tajriba-sinov ishlariga Farg'ona, Namangan, Samarqand viloyatlari umuta'lim maktablaridan jami 750 nafar o'quvchilar respondent sifatida jalb etilgan.

Tadqiqot predmetini biologiya fanidan kompyuter imitatsion modellarni umumta'lim maktablarining o'quv jarayoniga joriy etishning shakl, metod va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida manbalar va tajribalarni o'rganish, nazariy tahlil usullari; modellashtirish usuli, pedagogik eksperiment, natijalarni matematik va statistik tahlil etish, umumlashtirish va xulosalash usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat.

biologiya o'qitish jarayonini takomillashtirishda kompyuter imitatsion modellarning didaktik imkoniyatlari virtual, real eksperiment jarayonini konstruktivistik ta'lim paradigmasi asosida integratsiyalashni interaktiv simulyatsiya muhitida ta'minlash asosida aniqlashtirilgan;

o'quv jarayonini kompyuter imitatsion modellar asosida takomillashtirishning ko'p funksional modeli individual o'quv sur'atiga moslashtirilgan o'quv topshiriqlarida biologik jarayonlar sintezini qiyinlik darajalarda formativ baholashni maqbullashtirish asosida takomillashtirilgan;

kompyuter imitatsion modellarida biologiya fanini o'qitishning modifikatsiyalangan didaktik ta'minoti an'anaviy didaktik tizimda dinamik vizual kontentni illyustrativ-interpretatsion funksiyalarda qisqa intervalli monitoringda qo'llash asosida takomillashtirilgan;

o'quvchilarning o'zlashtirishi va amaliy-tahlil faoliyati samaradorligi kompyuter imitatsion modellarga asoslangan o'qitish muhitida ta'minlanishi proektiv-akademik o'quv keyslarini Ispring QuizMaker, Ispring Pro, Course Lab dasturlarida yakka, jamoaviy shakllarda qo'llanilishi orqali dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

kompyuter imitatsion modellarning didaktik imkoniyatlarini virtual, real eksperiment jarayonini konstruktivistik ta'lim paradigmasi asosida integratsiyalashga mo'ljallangan 9-sinf biologiya darsligi bo'yicha o'quv topshiriqlari tizimi ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan;

kompyuter imitatsion modellar va veb platforma asosida biologik jarayonlar sintezini qiyinlik darajalarda o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishini yengillashtiruvchi individual o'quv sur'atiga moslashtirilgan metodikalar tizimlashtirilgan;

dinamik vizual kontentni illyustrativ-interpretatsion funksiyalariga asoslangan an'anaviy va innovatsion didaktik tizimda kompyuter imitatsion modellaridan o'qituvchilarga qo'llashga mo'ljallangan EBIOLOGY.uz nomli platforma ishlab chiqilgan;

ISpring QuizMaker, Ispring Pro, CourseLab dasturiy vositalardan foydalanish orqali o'quvchilarning biologiyadan bilim, ko'nikma va malakalarini formativ baholashga mo'ljallangan o'quv topshiriqlar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo'llanilgan yondashuv va usullar, ilmiy-nazariy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, keltirilgan tahlillar va tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik-statistika metodlari vositasida asoslanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarining amaliyotda joriy etilganligi, olingan natijalarning tegishli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi; ishga oid muammo Respublika va xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plamlari, OAK e'tirof etgan maxsus va xorijiy jurnallarda chop etilgan maqolalar e'lon qilinganligi, O'zbekiston Respublikasi intellektual mulk agentligi tomonidan olingan dasturiy mahsulot guvohnomalari bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati 9-sinf o'quvchilariga biologiya o'qitish jarayonini takomillashtirishda kompyuter imitatsion modellarning didaktik imkoniyatlarini aniqlashtirishga oid xorijiy va milliy tajribalarning tahlil etilganligi, o'quv jarayoni samaradorligini oshirish va bilish faoliyatini faollashtirish, o'qish ehtiyoji hamda qiziqishiga muvofiq bilim, ko'nikma va malakalarni egallash, shuningdek o'qitish jarayonida tabaqalashtirilgan yondashuvdan foydalanish, o'quvchilar faoliyatini loyihalashtirish, monitoring qilish, metodik rejalashtirish va boyitishga mo'ljallangan strategiya, texnologiyalar hamda ularning transformatsiyalari tatbiq etilgani, axborot muhitida subyektlarning qulay harakatlanishiga oid tajribalarining yo'lga qo'yilgani bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati umumta'lim maktablari 9-sinf o'quvchilarida biologiya darslariga oid nazariy bilimlari, amaliy ko'nikma hamda malakalarini raqamlashtirilgan ta'lim sharoitida rivojlantirishga mo'ljallangan dinamik vizual kontent yaratilganligi, KIM va veb platforma asosida biologik jarayonlar sintezini o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishini yengillashtiruvchi individual o'quv sur'atiga moslashtirilgan metodikalar tizimlashtirilganligi, ISpring QuizMaker, Ispring Pro, CourseLab dasturiy vositalari yordamida o'quvchilarning biologiyadan bilim, ko'nikma va malakalarini formativ baholashga mo'ljallangan o'quv topshiriqlarining ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. 9-sinf biologiya darsligini mavzulari bo'yicha ishlab chiqilgan KIMlarni umumta'lim maktablarining dars jarayonida qo'llashga doir tadqiqot natijalari asosida:

biologiya o'qitish jarayonini takomillashtirishda kompyuter imitatsion modellarning didaktik imkoniyatlari virtual, real eksperiment jarayonini konstruktivistik ta'lim paradigmasi asosida integratsiyalashni interaktiv simulyatsiya muhitida ta'minlashga oid tavsiyalari "Kompyuter tarmoqlari" nomli o'quv qollanma mazmuniga singdirilgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 09-iyuldagi № 384944-son guvohnomasi). Natijada, o'quvchilarning biologiya o'quv predmetidan o'quv faoliyatini simulyatsiya muhitida takomillashtirishga xizmat qilgan.

o'quv jarayonini kompyuter imitatsion modellar asosida takomillashtirishning ko'p funksional modeli individual o'quv sur'atiga moslashtirilgan o'quv topshiriqlarida biologik jarayonlar sintezini qiyinlik darajalarda formativ baholashni maqbullashtirishga oid takliflardan "OT-Atex-2018-519 kompyuter imitatsion modellar asosida virtual resurslarning Web-illovasini dasturiy ta'minotini yaratish" mavzusidagi innovatsion tadqiqot loyihasini bajarishda foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillari institutining 2023-yil 28-avgustdagi 212/02-son ma'lumotnomasi). Ushbu loyiha doirasida ishlab chiqilgan kompyuter imitatsion modellar 9-sinf o'quvchilarining biologiya o'quv predmetidan kreativ fikrini rivojlantirishga xizmat qilgan;

o'quvchilarning o'zlashtirishi va amaliy-tahlil faoliyati samaradorligi kompyuter imitatsion modellarga asoslangan o'qitish muhitida ta'minlanishi proektiv-akademik o'quv keyslarini Ispring QuizMaker, Ispring Pro, Course Lab dasturlarida yakka, jamoaviy shakllarda qo'llashga oid ilmiy-metodik tavsiyalardan o'quv jarayonida foydalanilgan (Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining 2023-yil 14-oktabrdagi 02-07-4614/04-son ma'lumotnomasi). Natijada, umumta'lim maktablarining biologiya o'quv predmetini o'zlashtirish samaradorligini oshishiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 6 ta respublika va 4 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 16 ta ilmiy ish chop etilgan bo'lib, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 10 ta ilmiy maqola, jumladan 6 ta maqola OAK ro'yxatiga kiritilgan Respublika jurnallarida, 2 ta yuqori impaktfaktorli xorijiy jurnallarda va 2 ta maqola SCOPUS xalqaro ma'lumotlar bazasida indekslanuvchi konferensiyalarda nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan tarkib topgan. Dissertatsiyaning asosiy hajmi 137 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, mavzu bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqot ishlari tahlil qilingan, tahlil jarayonida muammoning o'rganilganlik darajasi ilmiy asoslab berilgan, tadqiqotning ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi, maqsadi va vazifalari, predmeti, ob'ekti va usullari, ilmiy yangiliklari, amaliy natijalari, natijalarning

ishonchliligi, natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati, natijalarining joriy qilinishi, natijalar aprotatsiyasi, natijalarining e'lon qilinganligi, ishning tuzilishi va hajmi borasidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Kompyuter imitatsion modellar asosida umumta'lim maktablari o'quv jarayonini takomillashtirishning nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida kompyuter imitatsion modellar asosida umumta'lim maktablari o'quv jarayonini takomillashtirishning xorijiy tajribalari tahlili, umumta'lim maktablarida kompyuter imitatsion modellar asosida dars jarayonini tashkil qilishning pedagogik jihatlari hamda Respublika umumta'lim maktablarida kompyuter imitatsion modellarni o'quv jarayoniga tatbiq etishning nazariy asoslari tahlil qilingan.

Zamonaviy sivilizatsiya axborotlashtirish davriga — inson faoliyatining barcha ijtimoiy ahamiyatga ega sohalarida ishonchli, har tomonlama va o'z vaqtida bilim olish hamda ulardan foydalanish jarayonini ta'minlashga qaratilgan axborot sohasi davriga kirib bormoqda. Maktab ta'limida bu jarayonni amalga oshirish atrofda voqelikni bilishning integratsiya tendensiyalarini qo'llab-quvvatlash, o'quvchi shaxsini rivojlantirish uchun ijodiy qobiliyat va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish misolida namoyon bo'ladi. Xususan, imitatsiya texnikasi so'nggi o'n yillikda ta'lim jarayonida muvaffaqiyatli qo'llanilib kelinmoqda. Imitatsiya deganda xavfsiz muhitda real faoliyat va jarayonlarga taqlid qilish tushuniladi. Imitatsiyalar imkon qadar “haqiqiy narsa”ga yaqin tajribani taqdim etishga hamda o'quvchilarga kengroq o'rganish, bilimlarini qo'llash orqali muayyan vaziyatlar tajribasini rivojlantirishga imkon beradi.

Imitatsiyalar chiziqli bo'lmagan tabiat va keyinchalik boshqariladigan noaniqlik bilan tavsiflanadi. Bunda qaror qabul qilish ko'nikmasi shakllanishi (V.Maheshwari), vebga asoslangan virtual ta'lim muhitini yaratish orqali virtual haqiqat texnologiyasidan foydalanish samarali bo'lishi (A.Davis), o'z-o'zini boshqarish modullari sifatida xizmat qilishi mumkinligi (Singley, G.Bradford), informatika, ehtimollik va statistika hamda matematikaga ikki tomonlama ta'sir ko'rsatishi (Nance, E.Richard), muhandislik menejerlari faoliyatida keng qo'llanilishi (Tolk, Andreas), hamshiralik ishi yo'nalishida o'quv natijalarini yaxshilash va klinik amaliyotga o'tish malakasini oshirishi (Marlene Whigham), harbiy sohada jangovar modellashtirish asosida muhandislik-tasvir loyihalarida inson omillarini hisobga olishda muhim ahamiyat kasb etishi (Mittal, V.Kewley), umuman olganda, talabalar faoliyati mazmunini aks ettirishi va ularga haqiqiy loyihani yaratish uchun eksperimental muhitni taqdim etishi (W.Kappers, S.Cutler) aniqlangan. Kompyuter imitatsiya jarayonlarining STEAM ta'limidagi tegishli nazariyalarni baholashda qo'llanilishi (Shanna R.), qattiq jismlar kinematikasining haqiqiy fizik hodisalarini imitatsiya qilish orqali o'quvchilar vizualizatsiyasiga erishish mumkinligi (Tobail A., Crowe J.), raqamli texnologiyalar iqtisodiyot va jamiyatlarga chuqur ta'sir ko'rsatib, ishlash, muloqot qilish, ijtimoiy faoliyat bilan shug'ullanish va dam olish uslublarimizni tubdan o'zgartirayotgani ta'kidlangan.

Umumta'lim maktablarida KIM asosida dars jarayonini tashkil etishning bu ma'lum yoki shakllangan vaqt davomida murakkab tizimlarning xatti-harakatlarini tavsiflovchi matematik modellar bilan kompyuterda tajribalar o'tkazish, o'qitishda yangi texnologiyalarni qo'llash, o'quv jarayonini tashkil etish va bo'lajak

mutaxassislarni tayyorlash (I.Kudinov, E.Karunas), o'quvchilarni faollashtirib, o'qituvchining pedagogik mahoratini shakllantirishi (M.Sergeyeva), vaziyatni prognozlash (A.Goloshumov), talabaning o'quv faoliyatini individuallashtirish (E.Panisheva) kabi pedagogik jihatlari talqin qilingan.

Masofali o'qitishni tashkil qilishda (A.Abduqodirov, A.Pardaev), o'quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratishda (N. Tayloqov), o'quv jarayonini tashkil etish va boshqarishda (F. Zakirova), ta'lim kontentidan foydalanishda (F.G'affarov), tasavvur yordamida obyektning ongda shakllanishida (M.Begmatov, I.Mamasoliyev) va uning samaradorligini oshirishda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Respublika umumta'lim maktablarida kompyuter imitatsion modellardan fanlarni o'qitishda foydalanish masalasida Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida "Biologiya fanlarini chuqur o'rganishga mo'ljallangan didaktik materiallar va multimedia mahsulotlarining yangi avlodlarini yaratish, o'quvchilarning jismonan sog'lom va baquvvat shakllanishini ta'minlash tamoyillarini ommalashtirish"² kabi ustuvor vazifalar belgilangan.


Kompyuter imitatsion modellar axborotlarni izlash, ko'rish, baholash, tanqidiy tafakkurni shakllantirish (Y.Mamatova, S.Sulaymanova), o'quvchilarni mustaqil o'quv faoliyatini rivojlantirishga (D.Toshtemirov, D.Abdurahimov), o'quv ma'lumotlarini ko'rgazmali-obrazli tarzda havola etishni (I.Shernazarov), umumta'lim maktablarida biologiyani integrativ yondashuv asosida off-line rejimiga moslashtirish (L.Qaraxonova), ta'lim oluvchilarning yoshi va fiziologik xususiyatlari hisobga olish qulayligi (R.Djuraev, U.Taylaqov), biologiya ta'limida interaktiv dasturiy vositalar ta'limi tizimlashtirishga yordam berishi (G.Ergashyev), veb dasturlar dinamik va statik tizimlar, loyihalar yaratish imkoniyatlarini berishi (R.Fayziyeva), kimyodan amaliy mazmundagi mustaqil ishlar va olingan natijalarga matematik-statistik ishlov berishga (B.Do'monov) imkoniyatlar yaratishi ilmiy muhokamadan o'tkazilgan.

Kompyuter imitatsion modellarni real obyekt yoki jarayonning ichki va tashqi xususiyatlarini raqamli muhitda algoritmik asosda qayta yaratish, ularni interaktiv simulyatsiya shaklida vizuallashtirish hamda o'quv jarayonini individuallashtirish, boshqarish va natijalarni monitoring qilish imkonini beruvchi kompleks pedagogik-dasturiy tizim deb hisoblaymiz. Bunda ta'limni raqamlashtirish kontekstida dasturiy vositalardan foydalanish o'quvchilarni dinamik vizual kontentga asoslangan modifikatsiyalangan didaktik ta'minotni kuzatish, tahlil qilish va xulosa chiqarish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Dissertatsiyaning **"Umumta'lim maktablarda kompyuter imitatsion modellar asosida o'quv jarayonini takomilashtirish metodikasi"** nomli ikkinchi bobida 9-sinf o'quvchilari uchun biologiya o'quv predmetiga doir kompyuter imitatsion modellar yaratish texnologiyasi va o'quv jarayoniga joriy etish metodikasi keltirilgan.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-sonli farmoni

Tadqiqot davomida umumta'lim maktablarda kompyuter imitatsion modellar (KIM) asosida o'quv jarayonini takomillashtirishning yaxlit, tizimli va o'zaro bog'liq komponentlardan tashkil topgan pedagogik modeli ishlab chiqildi. Model ta'lim jarayonining maqsadli, texnologik, mazmunli, o'quv jarayoni, baholash va natija komponentlarini integratsiyalashgan holda ifodalaydi hamda ularning o'zaro aloqadorligini ta'minlaydi.




1-rasm. Umumta'lim maktablarda kompyuter imitatsion modellar asosida o'quv jarayonini takomillashtirish modeli.

Dars jarayonida kompyuter imitatsion modellardan foydalanish biologik jarayonlarni konstruktivistik ta'lim paradigmasi asosida interaktiv simulyatsiya muhitida namoyish etish, o'quvchilarning individual o'quv sur'atiga moslashtirilgan topshiriqlar orqali biologik jarayonlar sintezini turli qiyinlik darajalarida o'zlashtirish, formativ baholash elementlari yordamida o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini aniqlash hamda dinamik vizual kontent asosida nazariy bilimlarni mustahkamlash kabi muhim metodik vazifalarni bajaradi.

Darsdan tashqari mashg'ulotlar asosan raqamli platforma asosida tashkil etiladi. Bunda:

- o'quvchilar platformada o'tilgan mavzularni takrorlaydi;
- kompyuter imitatsion modellar asosida mustaqil ravishda biologik jarayonlarni qayta modellashtiradi;
- uyga vazifa topshiriqlarini platforma orqali bajaradi;
- formativ baholash elementlari (test, interaktiv topshiriq, keys) orqali o'z bilimini tekshiradi.

O'quv jarayoni komponenti dars va darsdan tashqari faoliyat shakllarida kompyuter imitatsion modellar (KIM)dan samarali foydalanishni ta'minlovchi metodlar tizimi bilan uyg'un holda tashkil etiladi. 9-sinf biologiya fanini KIM asosida o'qitishda metodlar nafaqat bilimni uzatish, balki o'quvchining bilish faoliyatini faollashtirish, ilmiy tafakkurini rivojlantirish va amaliy-tahliliy kompetensiyalarini shakllantirishga qaratiladi. Tadqiqot doirasida o'quv jarayonida SAMR modeli, muammo yechimi metodi, tushunchalar tahlili va test metodlaridan foydalanish nazarda tutiladi.



2-rasm. KIMni SAMR modeliga integratsiyasi

SAMR modeli asosida 9-sinf biologiya fanini o'qitishni takomillashtirish an'anaviy metodikadan bosqichma-bosqich interaktiv va innovatsion ta'lim muhitiga o'tishni ta'minlaydi.

Kompyuter imitatsion modellar asosida o'quv jarayonini takomillashtirish modelining joriy etilishi umumta'lim maktablarining 9-sinf biologiya darslarida o'quv jarayonini kompyuter imitatsion modellar asosida sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi. Model komponentlarining o'zaro mantiqiy uyg'unligi ta'lim mazmunini zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida qayta tashkil etish, o'quvchilarning bilish faolligini oshirish va biologik bilimlarni chuqur hamda ongli o'zlashtirishni ta'minlaydi. Natijada biologiya fanini o'qitish jarayoni an'anaviy axborot uzatish shaklidan interaktiv, modellashtirishga asoslangan va

kompetensiyaga yo'naltirilgan ta'lim muhitiga transformatsiyalanadi. Bu esa o'quvchilarda ilmiy tafakkur, tahliliy fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish hamda raqamli kompetensiyalarni shakllantirish orqali ta'lim sifatini oshirishga metodik asos yaratadi.

Yuqoridagi ilmiy-metodik va strategik omillarni inobatga olgan holda, 9-sinf biologiya kursi uchun ixtisoslashtirilgan interaktiv platforma ishlab chiqish dolzarb vazifa sifatida namoyon bo'ladi. Bunday platforma biologik jarayonlarni kompyuter imitatsion modellar asosida vizuallashtirish, o'quvchilarning individual o'zlashtirish darajasini monitoring qilish hamda formativ baholash elementlarini integratsiyalash imkonini beradi. Shulardan kelib chiqib eBiology.uz raqamli ta'lim platformasi zamonaviy veb-texnologiyalar asosida ishlab chiqildi.



3-rasm. eBiology.uz raqamli ta'lim platformasi

Platforma to'liq veb-ilova shaklida ishlab chiqilgan bo'lib, brauzer orqali ishlaydi. Shu sababli foydalanuvchilar — o'quvchi va o'qituvchilar — qo'shimcha dasturiy ta'minot yoki maxsus qurilma o'rnatmasdan turib tizimdan foydalanishlari mumkin. eBiology.uz platformasining pedagogik arxitekturasi Bloom taksonomiyasi asosida kognitiv rivojlanish izchilligini ta'minlasa, SAMR modeli asosida texnologiyaning transformatsion salohiyatini ro'yobga chiqaradi. Ushbu ikki nazariyaning integratsiyasi raqamli ta'lim muhitida biologiya fanini chuqur, tizimli va kompetensiyaviy asosda o'qitish uchun metodologik poydevor yaratadi.

Ishlab chiqilgan platforma biologiya fanini o'qitishda texnologik, didaktik va analitik komponentlarning integratsiyalashgan muhitini yaratadi. Uning asosiy afzalligi — interaktiv kompyuter imitatsion modellar va virtual laboratoriyalar orqali mikrodarajadagi biologik jarayonlarni vizuallashtirish, Bloom taksonomiyasiga asoslangan topshiriqlar tizimi orqali kognitiv rivojlanishni bosqichma-bosqich ta'minlash hamda real vaqt rejimidagi monitoring mexanizmi orqali o'quvchilarning individual o'zlashtirish dinamikasini tahlil qilish imkoniyatidir. Platformaning modulli arxitekturasi va tashqi bog'liqliklarsiz ishlaydigan resurslari uni barqaror, kengaytiriluvchan va amaliyotga joriy etish uchun qulay raqamli pedagogik vositaga aylantiradi. Natijada ta'lim jarayoni reproduktiv yondashuvdan interaktiv, kompetensiyaviy va ma'lumotlarga asoslangan (data-driven) modelga transformatsiyalanadi.

Tadqiqot doirasida 9-sinf biologiya fanini auditoriya sharoitida kompyuter imitatsion modellar asosida o'qitish metodikasi an'anaviy o'qitish metodikasini

takomillashtirish tamoyiliga tayanib ishlab chiqildi. An'anaviy o'qitish metodikasini takomillashtirish jarayonida o'qituvchi mavzular bo'yicha tushunchalarni taqdimotning ikki oynali interfeysi asosida yoritib, har bir tushuncha bilan bog'liq tasvir va jarayonlarni o'zaro integratsiyalash orqali ko'rgazmalilik darajasini oshirishga erishildi.

Kompyuter imitatsion modellaridan dars jarayonida foydalanish, o'quv jarayonini tashkil etish, o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, o'quv jarayonini tashkil etishda uslubiy va axborot bazasini tayyorlash bo'yicha ilmiy-uslubiy ishlar olib borishning metodik ta'minoti ishlab chiqildi. Kompyuter imitatsion modellarni ishlab chiqish jarayoni ko'p tarmoqli hamkorlik asosida amalga oshirildi. Unda biologiya fani o'qituvchilari, dizaynerlar, dasturchilar va psixologlardan iborat jamoa faoliyat yuritdi. Bunday integrativ yondashuv modelning ilmiylik, didaktik moslik, vizual jozibadorlik va psixologik qabul qilinuvchanlik talablariga javob berishini ta'minlashga xizmat qildi.

Kompyuter imitatsion modellarni yaratish jarayonining muhim bosqichlaridan biri har bir mavzu bo'yicha imitatsion jarayonni to'liq va samarali aks ettirish masalasini aniqlashtirishdan iborat bo'ldi. Bunda quyidagi savollarga javob izlandi: qaysi biologik jarayon modellashtirishga ehtiyoj sezadi; jarayonning qaysi bosqichlari dinamik ko'rsatishni talab qiladi; o'quvchi qaysi parametrlarni mustaqil boshqarishi mumkin; modellashtirish orqali qanday didaktik natijaga erishish ko'zda tutiladi. Natijada har bir mavzu uchun alohida ssenariy ishlab chiqildi va kompyuter imitatsion modellar aynan shu ssenariy asosida loyihalashtirildi. Bu esa biologiya fanining mazmunini izchil, tizimli va interaktiv shaklda o'qitish imkonini yaratdi.

Dars jarayonida yangi tushunchalar va muhim terminlar paydo bo'lgan paytda, ular bilan bevosita bog'liq biologik jarayonlarni vizual va dinamik tarzda namoyish etish maqsadida tegishli kompyuter imitatsion modellar qo'llanildi. Bu yondashuv o'quvchilarning diqqatini jalb qilish, murakkab jarayonlarni ichki va tashqi xossalari bilan birgalikda ko'rsatish hamda darsni interfaol tashkil etish imkonini berdi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, o'zbek tilidagi umumta'lim biologiya ta'limi uchun Blum taksonomiyasi va SAMR modeli sinteziga asoslangan kompyuter imitatsion modellar ilk bor to'liq funksional veb-platforma doirasida tizimli integratsiya qilindi. Ishlab chiqilgan metodik model O'zbekiston umumta'lim maktablarida biologiya fanini o'qitishni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy asoslangan amaliy yechim sifatida taklif etiladi.

Dissertatsiya ishining uchinchi bobi **“Pedagogik tajriba-sinov bosqichlari, natijalari va tahlili”** deb nomlangan bo'lib, unda o'quvchilarga o'quv materiallarini kompyuter imitatsion modellar asosida o'quv jarayonini tashkil etish, unga oid mashg'ulotlar mazmunini takomillashtirish hamda qayd etilgan natijalarni tahlil qilish bilan bog'liq jihatlar tadqiq etilgan.

O'quvchilarga biologiya fanini o'qitishda kompyuter imitatsion modellardan foydalangan holda ularning, ko'nikma va malakalarini rivojlantirishni axborot texnologiyalarining dasturiy vositalari asosida amalga oshirish va tajriba-sinov o'tkazish asosiy masalalardan biri sifatida qaralgan. Shu bois, tadqiqotda umumta'lim maktablarining 9-sinf “Biologiya” fani misolida o'quv jarayonini kompyuter

imitatsion modellar asosida takomillashtirish maqsadida tajriba-sinov ishlari olib borilgan. Tajriba sinov ishlari uch bosqichda amalga oshirildi:

Tajriba sinovning birinchi bosqichi 2020-2023 o'quv yillarida umumta'lim maktablarining 9-sinf "Biologiya" fanini Davlat ta'lim standartlariga oid o'quv dasturi, shakllari va o'quv dasturi asosida belgilab berilgan fan mavzulari tahlil qilindi hamda ularning fan mavzularini o'zlashtirish faoliyati davridagi mavjud muammolar aniqlandi. O'rganilgan tadqiqot muammolari asosida tadqiqot mavzusi tahlil qilinib, tadqiqotning maqsadi, obyekti, predmeti, ilmiy farazi va vazifalari aniqlashtirib olindi.

Pedagogik tajriba-sinov o'tkazish ob'ektlari sifatida Farg'ona viloyatining 4-, 7-, 10-, 12-, 17-, 19-, 23-, 24-, 29-sonli, Namangan viloyatining 1-, 6-, 8-, 10-, 48-, 50-sonli, Samarqand viloyatining 8-, 9-, 10-, 14-, 42-, 15-, 80-sonli umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9-sinf o'quvchilari jalb etildi hamda ularni tajriba va nazorat guruhlariga ajratildi. Jami 750 nafari o'quvchilar respondent sifatida ishtirok etdi. Shundan tajriba sinfida 412 nafar, nazorat sinfida 338 nafar o'quvchilar qatnashdi. Tanlab olingan maktablarda dastlab 9-sinf "Biologiya" fani bo'yicha o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini aniqlash ishlari amalga oshirildi. O'zlashtirish darajalari test usulida baholandi.

Pedagogik tajriba-sinov obyektlarida 9-sinf "Biologiya" fani bo'yicha o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish va o'tkazishda mavjud o'quv dasturlari, darsliklar va o'quv qo'llanmalar asosida zamonaviy axborot resurslari ombori, ya'ni kompyuter imitatsion modellari asosida fan mazmunini o'quvchilarga to'liq yetkazib berish asosiy maqsadlardan biri sifatida belgilandi. Dastlabki bilim darajalari aniqlanib, belgilangan maqsad asosida keyingi bosqichlarda faoliyat davom ettirildi.

Uchinchi bosqich – amaliy, shakllantiruvchi va nazorat qiluvchi bosqich. Belgilangan maqsadga ko'ra, 9-sinf "Biologiya" fanini o'qitishni yaratilgan elektron platforma asosida tashkil etishga oid o'quv materiallari mazmuni ishlab chiqildi. 9-sinf "Biologiya" fanini o'qitish uchun elektron platforma algoritmi, didaktik materiallar hamda ulardan foydalanish metodikasi yaratildi va amaliyotda qo'llanildi.


O'qitishning zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalariga asoslangan kompyuter imitatsion modeli ishlab chiqilib, elektron platformaga joylashtirildi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish maqsadida elektron platforma bilan birgalikda 9-sinf "Biologiya" fanidan ma'ruza matnlari, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari, testlar hamda mustaqil ish topshiriqlari tayyorlandi.

Yaratilgan kompyuter imitatsion modellar va elektron platformadan pedagogik tajriba-sinovlar davomida foydalanildi. Ushbu ilmiy-tadqiqotda o'quvchilar o'zlashtirishining sifat va miqdor o'zgarishlarini aniqlash maqsadida kvalimetriya metodidan foydalandik. Bu esa o'z navbatida pedagogik tajriba-sinov olib borish uchun asos sifatida xizmat qildi. Tajriba-sinovni o'tkazish jarayonida o'quvchilar o'zlashtirishining miqdor va sifat ko'rsatkichlarini aniqlash asosida xulosa va takliflar ishlab chiqildi.

Kvalimetrik metod pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etish uchun asos sifatida xizmat qiladi. Quyidagi jadval va gistogrammalarda o'quvchilar o'zlashtirishining sifat va miqdor o'zgarishiga doir ma'lumotlar keltirilgan.

Tajriba-sinov o'tkazilgan Namangan, Farg'ona va Samarqand umumta'lim maktablari bo'yicha umumiy natijalar

Tajriba-sinov o'tkazilgan Namangan, Farg'ona va Samarqand viloyati bo'yicha umumiy natijalar	O'zlashtirish	Tajriba guruhi m=412 X_i				Nazorat guruhi n=338 Y_i			
		Tajriba boshida o'quvchi soni	%	Tajriba oxirida o'quvchi soni	%	Tajriba boshida o'quvchi soni	%	Tajriba oxirida o'quvchi soni	%
	Yuqori	101	25	149	36	71	21	92	24
O'rta	152	37	192	47	112	33	147	37	
Quyi	159	38	71	17	155	46	99	39	



4-rasm. Kompyuter imitatsion modellar asosida takomillashtirish texnologiyalarini umumiy darajasi diagrammasi

Umumta'lim maktablarining 9-sinf biologiya darsligi asosida yaratilgan kompyuter imitatsion modellarni o'quv jarayoniga joriy etishning shakl, vosita va metodlaridan foydalanib o'tkazilgan tajriba-sinov jarayonida Farg'ona, Namangan va Samarqand viloyatlarining umumta'lim maktablarida o'tkazilgan tajriba-sinov natijalariga ko'ra olib borilgan ilmiy-tadqiqotning samaradorligi 11,73 foizga oshganligi isbotlandi.

UMUMIY XULOSALAR

Umumta'lim maktab o'quv jarayonini kompyuter imitatsion modellar asosida takomillashtirish texnologiyalari mavzusida olib borilgan tadqiqotlar natijalari quyidagi xulosalarni taqdim etishga asos bo'ldi:

1. Biologiya fanini o'qitish jarayonida kompyuter imitatsion modellardan foydalanish virtual va real eksperimentlarni konstruktivistik ta'lim paradigmasi doirasida integratsiyalash imkonini berib, o'quv jarayonining interaktivligi, tizimligi

va amaliy yo'nalishini sezilarli darajada oshiradi hamda talabalarning nazariy bilimlarini amaliy faoliyat bilan uyg'unlashtiradi.

2. Kompyuter imitatsion modellar asosida o'quv jarayonini takomillashtirishning ko'p funksional modeli o'quv topshiriqlarini individual sur'atga moslashtirish orqali biologik jarayonlarni turli qiyinlik darajalarida formativ baholashni maqbullashtirishga xizmat qiladi.

3. Kompyuter imitatsion modellar asosidagi interfaol o'qitish tizimi o'qitish jarayonining samaradorligini oshirishda muhim omil bo'lib, u o'quvchilarda mustaqil ishlash, axborot bilan faol muloqot qilish va hamkorlikda o'rganish kompetensiyalarini rivojlantirdi. SAMR modeli asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida o'zaro aloqani kuchaytirib, ta'lim sifatini oshirdi.

4. Modifikatsiyalangan didaktik ta'minot orqali an'anaviy biologiya darslarida dinamik vizual kontentni illyustrativ-interpretatsion funksiyalar bilan qisqa intervalli monitoringda qo'llash o'quv jarayonining nazariy va eksperimental tarkiblarini uzviy bog'lashga va o'quvchilarning o'rganish jarayonidagi analitik tafakkurini rivojlantirishini kafolatlaydi.

5. Kompyuter imitatsion modellarga asoslangan o'qitish muhiti hamda proyektiv-akademik o'quv keyslarini Ispring QuizMaker, Ispring Pro va Course Lab dasturiy vositalari orqali yakka va jamoaviy shakllarda qo'llash biologiya fanidan o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirish darajasi, amaliy-tahlil faoliyati, mustaqil fikrlashi va hamkorlikda ishlash ko'nikmalarini samarali rivojlantiradi.

6. Ta'limni raqamlashtirish kontekstida o'quvchilarning raqamli faolligini oshiruvchi dasturiy-didaktik vositalar samaradorligini baholash mezonlari monitoring qilishga mo'ljallangan zamonaviy o'qitish uslubida o'quv jarayonini tashkil etish asosida shakllanadi.

7. Olib borilgan tadqiqot yakunida ishlab chiqilgan metodik tizimni pedagogik tajriba-sinovdan o'tkazish natijalari sinov guruhi o'quvchilarining nazorat guruhi o'quvchilariga nisbatan o'quv-bilish faoliyati samaradorligi 11,73 % ga oshganligi statistik tahlillar asosida isbotlandi.

Taklif va tavsiyalar

1. Bugungi kunning innovatsion talablariga javob beruvchi raqobatbardosh mutaxassis kadrlar tayyorlashni takomillashtirishda, umumta'lim maktablarida o'qitiladigan o'quv kurslarining mavzulari bo'yicha KIM yordamida mazmunini takomillashtirish asosida dars mashg'ulotlarini tashkillashtirish;

2. Kompyuter imitatsion modellar asosida yoshlar ta'limi uchun elektron platformalar yaratish va ta'lim jarayoniga tatbiq etish bo'yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

3. 9-sinf biologiya darsligi asosida ishlab chiqilgan KIMlarni umumta'lim maktablarinig turdosh predmetlari bo'yicha ham ishlab chiqish tavsiya etiladi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.01/2025.27.12.Ped.04.03 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ЧИРЧИКСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
ПЕДАГОГИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

ФЕРГАНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

СУЮМОВ ЖУРАБЕК ЮНУСАЛИЕВИЧ

**ТЕХНОЛОГИИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ УЧЕБНОГО ПРОЦЕССА
ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ШКОЛЫ НА ОСНОВЕ
КОМПЬЮТЕРНЫХ ИМИТАЦИОННЫХ МОДЕЛЕЙ
(на примере учебника биологии 9 класса)**

13.00.06 – Теория и методика электронного образования

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО
ПЕДАГОГИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Чирчик – 2026

Тема диссертации доктора наук (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером № В2022.2.PhD/Ped3769.

Диссертация выполнена в Ферганском государственном университете.

Автореферат диссертации размещен на трёх языках (узбекский, русский и английский (резюме)) на сайте Научного совета (www.csru.uz), и на Информационно-образовательном портале «ZiyoNET» (www.ziynet.uz).

Научный руководитель:

Лутфиллаев Махмуд Хасанович
доктор педагогических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Ахмеджонов Дилмурод Гуломович
доктор технических наук (DSc), профессор

Мухтаров Фаррух Мухаммадович
доктор педагогических наук (DSc), доцент

Ведущая организация:


Кокандский государственный университет


Защита диссертации состоится «3» 04 2026 года в 14:00 часов на заседании Научного совета PhD.01/2025.27.12.Ped.04.03 по присуждению ученых степеней при Чирчикском государственном педагогическом университете (Адрес: 111720, Ташкентская область, г. Чирчик, ул. Амира Темура, дом 104. Тел.: (99870) 712-27-55; факс: (99870) 712-45-41; e-mail: tvchdri@csru.uz).


С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Чирчикского государственного педагогического университета (зарегистрирован под номером 454). Адрес: 111720, Ташкентская область, город Чирчик, улица Амира Темура, дом 104. Тел.: (99870) 712-27-55.


Автореферат диссертации разослан «19» 03 2026 года.

(Протокол реестра под номером 11 от «19» 03 2026 года).


Ф.У. Кодирова
Председатель Научного совета
по присуждению ученых степеней д.п.н. (DSc), профессор


И.Д. Кодиров
Секретарь Научного совета по
присуждению ученых степеней,
доктор философии (PhD) по
педагогическим наукам, доцент


Д.О. Химматалиев
Председатель научного семинара при
Научном совете по присуждению ученых степеней, д.п.н. (DSc), профессор



ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и необходимость темы диссертации. В мире особое внимание уделяется повышению качества усвоения знаний учащимися путем широкого внедрения информационно-коммуникационных технологий в учебный процесс, создания баз образовательных ресурсов и эффективности их использования в данном процессе. Особое внимание уделяется использованию интерактивных программных средств, основанных на визуальных и виртуальных возможностях, в преподавании естественных наук, в частности биологии, а также созданию тематических компьютерных имитационных моделей, направленных на развитие у учащихся знаний о биологических процессах и формирование рефлексивных навыков.

В развитых странах мира, таких как США, Германия, Китай, Россия, Корея, Великобритания, Канада, Индия, Малайзия, Япония, проводятся научные исследования, направленные на развитие пространственного мышления учащихся, повышение эффективности уровня знаний, развитие у них теоретических знаний и практических компетенций в области науки на основе применения образовательных технологий. При этом обосновывается актуальность использования дидактических возможностей образовательных технологий, основанных на интеграции учебных дисциплин.

В нашей стране разработаны и внедряются государственные программы, направленные на развитие химии и биологии, повышение качества образования и научных результатов в этих областях. Вместе с тем следует отметить, что качество преподавания биологии в общеобразовательных школах не соответствует современным требованиям, методология преподавания и лабораторное оборудование морально устарели, а механизмы достойного стимулирования труда учителей не внедрены.

В Стратегии «Узбекистан-2030» по дальнейшему развитию Республики Узбекистан в качестве приоритетных задач определены вывод системы дошкольного образования на качественно новый уровень и обеспечение полного охвата детей, реализация программы «Благоприятная среда для образования» в системе общего среднего образования и модернизация системы общего среднего образования. В данном контексте особую значимость приобретает интеграция содержания учебного предмета «Биология» с базовыми понятиями естественно-научных дисциплин, разработка содержания методического обеспечения в соответствии с требованиями международных программ оценки качества образования, совершенствование работы по формированию у обучающихся практических умений и навыков. Поскольку углублённое обучение подрастающего поколения химии и биологии создаёт прочную основу для создания новых производственных предприятий в регионах, способствует повышению уровня жизни и доходов населения.

Данное диссертационное исследование в определённой степени способствует реализации задач, определённых в Указах Президента Республики Узбекистан: № PF-5313 от 25 января 2018 года «О мерах по коренному

совершенствованию системы общего среднего, среднего специального и профессионального образования», № PF-5712 от 29 апреля 2019 года «Об утверждении Концепции развития системы народного образования Республики Узбекистан до 2030 года», № PF-158 от 11 сентября 2023 года «О стратегии “Узбекистан — 2030”», а также в Постановлении Президента Республики Узбекистан № PQ-4805 от 12 августа 2020 года «О мерах по повышению качества непрерывного образования и результативности науки в области химии и биологии», Постановлении Кабинета Министров Республики Узбекистан № 187 от 6 апреля 2017 года «Об утверждении государственных образовательных стандартов общего среднего, среднего специального и профессионального образования», и других нормативно-правовых документах.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Диссертационное исследование выполнено в рамках приоритетного направления развития науки и технологий Республики И. «Информатизация и развитие информационно-коммуникационных технологий».

Степень изученности проблемы. Исследования, посвящённые вопросам внедрения информационно-коммуникационных технологий в образование, развитию электронного обучения, созданию и применению электронных информационно-образовательных ресурсов и программных оболочек, проводились такими учёными, как А. Абдукодилов, М. Арипов, Р. Бокиев, Ф. Закирова, М. Лутфиллаев, Н. И. Тайлаков, М. Тиллашайхова, У. Бегимкулов, Й. Маматова, С. Сулайманова, Р. Джураев, У. Тайлаков, М. Файзиев, Б. Думонов, а теоретические основы внедрения компьютерных имитационных моделей в учебный процесс общеобразовательных школ и вопросы совершенствования учебного процесса на основе компьютерных имитационных моделей исследованы в работах М. Лутфиллаева, И. Тухтасинова, Ф. Лутфилловой, Г. Эргашевой, Л. Карахановой, С. Алибоева, У. Тайлакова, Р. Эшимова, Н. Муслимова, Д. Сайфурова, А. Тураева, Ф. Гаффарова, М. Ниязова, Б. Сапаева, Ж. Тоджиева, С. Раззоковой, Ш. Хамдамова, Р. Бардиева, В. Хамидова, Э. Имамova и Б. Махмудова.

